

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Tong Yulduzi

2013-yil
25-fevral
N:8
(66913)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqra boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxt-u saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda.
Islom KARIMOV

SPORT ANJOMLARI KO'RGAZMASI



Kuni kecha poytaxtimizdagi O'zbekiston madaniyat va san'at ko'rgazmasi zalida sport anjomlari va uskunolari Respublika ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Respublika Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan mazkur tadbir sport jihozlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan yurtimizning eng ilg'or kompaniya va korxonalari ishtirok etishdi.

Davomi 7-betda

JAJJI MUSAVVIR

Toshkent viloyati, Angren shahridagi 4-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi MahliyoXon Abduqodirova juda kichikligidanoq tasviri san'atga mehr qo'ygan qizlarimizdan biri. Yoshi bilan barobar undagi rassomlikka bo'lgan havas ham ulg'aya bordi. Kelgusida mohir musavvir bo'lishni maqsad qilib, bu yo'lda tinmay izlandi. Ko'plab ko'rik-tanlovlarda ishtirok etib, iqtidorini imtihon qilayotgan MahliyoXon o'tgan yili shahar miqyosida o'tkazilgan «Yosh rassom» ko'rik-tanlovi g'olibi bo'ldi. Murg'akkina tasavvuriga keng ma'nodagi Vatan, tinchlik, do'stlik tuyg'usini sig'dira olgan yosh iste'dod egasining chizgan rasmlari qahramonlari asosan, o'zining tengdoshlari – bilimli, iqtidorli, salohiyatli bugunning bolalari. Ularni qanday ko'rishni istasa, shunday aks ettiradi.

MahliyoXonning qo'lida kitob tutib, kelajakka ishonch bilan boqayotgan bilimli, zukko o'g'il-qizlar siymosi aks ettirilgan «Tengdoshlarim» nomli rasmdan gazetamizning 1-sahifasini, «Yagona oilamiz» nomli rasmdan esa 7-sahifasini bezatishda foydalandik.

Jajji musavvirga ijodiy barkamollik tilagan holda bugunning bolalari orasida mana shunday iqtidorlar ko'payishini niyat qildik.





1-mart — O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiya Oripovning kuni

Yurtboshimiz Zulfiyani «Ulug' xalqimizning sevimli shoirasi, muhabbat va hayot kuychisi, sadoqat va vafu ramziga aylangan ayol!» deya ulug'laydi. Xalq shoiri Abdulla Oripov «Zulfiya opa ijodi samimiyat durlari shovullab to'kilib turgan aziz bir bog'dir», deb o'zining shoirasi bilan zamondosh ekanidan cheksiz faxrlanadi...

ULUG' USTOZ

Men oddiy bir qalamkash sifatida bu ulug' inson bilan yigirma yil bir dargohda ishlab, katta hayot maktabini o'taganimni iftixor bilan aytgim keladi.

Universitetni tamomlab, Farg'ona viloyat gazetasida ishlay boshlagan yosh paytim edi. Bir keksa muallim haqida ocherk yozib, ming istihola bilan «Saodat» jurnaliga yubordim. Va ma'qul bo'lgani haqida Zulfiya-xonimdan xushxabar oldim. Albatta, qalami o'tkir jurnalistlarning ocherklarini tinmay o'qiganim, puxta savollar tuzib olishga odatlanganim, o'qituvchi darsida bir necha soat o'quvchi» bo'lib saboq tinglaganim va o'zi bilan erinmay suhbatlashganim o'z samarasini bergan edi. Ha, ziyrak, o'ta talabchan muharrirning ishonchiga sazovor bo'lmoq uchun mehnat-sevarlig-u ko'p o'qishni, rostgo'ylik-u kamtarlikni, hayotni puxta o'rganmoqlikni kasb qilmoq kerak bo'ldi.

Zulfiya-xonimning o'smirlik onlari ham yoshlarimizga ibrat. Oiladagi to'rt o'g'ilning orasida yolg'iz qiz bo'lgan bo'lsa-da, shoirasi bolaligidan jiddiy, izlanuvchan, ziyarak qiz bo'lgan.

17 yoshidayoq uning «Hayot varaqlari» nomli kitobi chop etilgan. Hassos shoir Hamid Olimjon uning birinchi ustoz, so'ngra umr yo'ldoshi

bo'ldi. Keyinchalik uning juda ko'p kitoblari chiqdi, dunyoni keng tanidi va jahon yozuvchi, shoirlari davrasiga dadil kirib bordi. Ularni «Mushoira»ga chorladi. «Mushoira»da do'stlik, tinchlik, hamjihatlik ovozi yangraydi, degan edi shoirasi baralla.

Zulfiya opa «Saodat» jurnalini o'zbek qizlari va ayollarining eng sevimli, ardoqli nashriga aylantira oldi. Va biz shogirdlarini dadil, o'tkir fikrlashga, yangi-yangi mavzular o'ylab topishga o'rgatdi. Biz odob-axloqni, kamtarlikni, tinmay izlanishni, halollikni, ibo-hayoni, hatto kiyinishni ham Zulfiya opadan o'rganishga intildik.

Yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, hayot sinovlariga bardosh berish, Vatanga, sevgiga sadoqat Zulfiya-xonimning hayotiy shiori edi.

Poytaxtimizda Prezidentimiz farmoniga binoan shoiraga haykal o'rnatilgani bu Zulfiya she'riyati, sadoqati, timsolining abadiyligidan dalolat.

Darhaqiqat, ulug'lar hayoti bir maktab bo'lib, bizga balanddan ogoh ko'z bilan qarab turishlari yanada yorqin kelajakdan darak beradi.

San'at MAHMUDOVA,

«Oltin qalam» Milliy mukofoti sohibasi

Yurtimiz bo'yab buyuk bobokalonlarimiz Hazrat Mir Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag'ishlab o'tkazilayotgan tadbirlar davom etmoqda. Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 313-maktabda bo'lib o'tgan «Ajodlari buyuk yurt farzandimiz» nomli ijodiy kechadagi ajodlarimiz siymolari gavdalanitirilgan sahna ko'rinishlarida o'sha zamonning ruhi va qiyofasi aks ettirildi. Ayniqsa, g'azal mulkining sultoni bilan yosh shahzoda o'rtasidagi suhbat tarzidagi sahna ko'rinishi yig'ilganlar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Yuqori sinf o'quvchilari tomonidan g'azal va ruboiylari bo'yicha o'tkazilgan bahr-u bayt bellashuvi qizg'in kechdi. Unda 8-sinf o'quvchisi Iroda Ziyodjonovanning chiqishi ko'pchilikka ma'qul bo'ldi. Iroda maktab miqyosida o'tkazilgan g'azalxonlik tanlovida ham g'olib deb topilgan edi.



EHTIROM RAMZI

— Bu ikki dahoning amalga oshirgan ishlari, ulkan salohiyati barchamiz uchun ibrat maktabidir. Ular qoldirgan boy ma'naviy merosni chuqur o'rganish har birimizning burchimizdir. Shu boisdan har yili maktabimizda mana shunday g'azalxonlik kechalarini o'tkazib kelimiz, — deydi maktabning tarix fani o'qituvchisi Gulsara opa Erdonova.

Bobolarga ehtirom ramzi sifatida o'tkazilgan ushbu tadbir ishtirokchilar-u o'qituvchilarga, shuningdek, kecha mehmonlariga ham manzur bo'ldi.

Davronbek ORIPOV

BU QANDAY FUYG'LI?

— Bu-vi-jon, suyunchi bering, bog'imizda binafsha ochilibdi! — dedi jamalaksoch qizaloq quvonchdan ko'zlari porlab. — Qarang, qanday chiroyli!

Onaxon jajji nabirasini mehr bilan bag'riga bosib, uning mitti qo'lchalaridan bir dasta gulni oldi. Xushbo'y binafshalarni uzoq hidladi, ko'zlariga surtdi, nursiz ko'zlarida beixtiyor yosh halqalandi. Shu asnoda bir muddat turib qoldi.

— Buvijon, quvonishning o'rniga, nega yig'laysiz? Axir bahor kelyapti-ku! — dedi sabri chidamay qizaloq.

— Ha, ha, ona qizim, bahor kelyapti! Bu quvonch yoshlari! Senga suyunchining eng kattasini beraman, — dedi onaxon. So'ngra: «Yana bir bahoringga yetkazganingga shukr», deya ohista shivirladi...



SUBHIDAM...

Uning sarin sabolari qalblarni entiktiradi. Ko'klamning iliq tonggi epkini yuzingizni silab, qalbingizni quvonchga, totli hislarga, ezgu niyatlarga to'ldiradi.

Quloq tuting-a, qayerdadir bulbul xonish qilyapti. Uning ona allasidek yoqimli, sehrli sozi, ovozi ruhingizga allanechuk tetiklik baxsh etadi. Samolarga uchgudek, bulutlarni quchgudek bir kuch, qudrat sezasiz o'zingizda...

Qiziq, u qanday qo'shiq kuylayotgan ekan-a?



ONA ZAMIN...

Men uni keksa donishmandga o'xshataman. Kech kuzakda horg'in uyquga ketgan momo yer qishning qor-u yomg'irlariga to'yinib, kuch-quvvatga to'lib, yana barchaga rizqu ro'z ulashishga tayyor turgandek. Bo'liq-bo'liq tuproqlari kimnidir intiq kutayotgandek...

U erta tongda bag'ridan bodrab chiqqan yam-yashil maysalarni quchib, ko'zlarida yosh bilan diydorlashadi...



BOLAJON...

Bolalik bilan bahor — egizak! Bolakay qo'lida varragini tutib, ko'klamiy sabolar bilan poyga o'ynaydi, qir-adirlarga chiqib, maysalarning ertagiga quloq tutadi, qaldirg'och-u qumursqalarga ham, eng avvalo, bolajonlar peshvoz chiqishadi...

Har kundan mo'jizalar kutib yashaydigan bolakay bog'idagi o'rik daraxtiga sinchkov nazar tashlaydi. Daraxt shoxlaridagi bo'rtib turgan g'unchalar borliqni go'zallikka burkash musobaqasiga shaylanib turgandek taassurot qoldiradi unda. Birortasining gullaganini ko'rsa-yu, onasidan suyunchi olsa...

Keyin esa ayvon peshtoqidagi qaldirg'ochning iniga, yerto'la devoniga dadasi avaylab ilib qo'rgan varragiga bir-bir qarab, chuqur ko'rsinib qo'yadi...

Shu tobda uning mitti qalbidan qanday kechinmalar o'tiyapti?

Keksa-yu yoshni, parranda-yu darrandalarni birdek orziqtirgan, entiktirgan bu tuyg'uning nomi nima?

Uning nomi — SOG'INCHI! BAHOR SOG'INCHI!

Go'zalliklar timsoli, Ezguliklar elchisi, Rizqu ro'z belanchagi, Orzular halinchagi — KO'KLAMOY, qadamingga gullar-poyandozi!



Feruza JALILOVA

«YURT OZOD, TURMUSH OBOD» tanloviga

HISSAMIZNI QO'SHAYLIK!

Buvijonimning aytishlaricha, xalqimiz obod so'zini juda keng ma'noda qo'llar ekan. Chindan ham obod turmush deganda, yurtimiz xonadonlarining tinchligi, osoyishtaligi, dasturxonlarimiz, bozorlarimizning to'kin-sochinligini tushunamiz. Ana shunday farovon hayot kechirishni esa har bir inson istaydi. Aslida ota-onalarimiz, ustozlarimiz ham obodlik yo'lida mehnat qilishadi. Yurtboshimiz aytganlaridek, kelajakda bizdan ham ozod va obod yurt qolishiga, uning yanada gullab-yashnashiga hissa qo'shmog'imiz lozim. Bu shunchaki balandparvoz so'zimiz emas, maqsadimiz bo'lsin! Axir inson o'z uyini, Vata-



nini ko'rkam, obod, turmushini farovon qila olsa, hayoti ham mazmunli bo'ladi.

Mening namunali xulqi, odobi, a'lo o'qishi, ulkan yutuqlari bilan, avvalo, oilasi, qolaversa, maktabi sha'niga rahmatlar yog'dirayotgan do'stlarim talaygina. Demak, yuqoridagi maqsadimiz amalga oshib, yurtimizga dunyo havasmand bo'ladi.

Madina YO'LDOSHEVA,
Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on
tumanidagi 32-maktabning
7-«A» sinf o'quvchisi



Ne-ne buyuk allomalar, insonlar yashab o'tgan, donishmandlar yetishib chiqqan O'zbekiston atalmish yurtida yashaymiz. Bu jannatmakon diyorni nafaqat yurakdan sevish, ardoqlash, balki uning ravnaqiga o'z yutuqlarimiz bilan hissa qo'shmoq'imiz, Vatan taqdirini o'z



BUYUKLAR YASHAGAN YURT BU!

taqdirimiz deb bilmog'imiz, chin inson sifatida uni asrab-avaylamog'imiz lozim.

Bugungi kunda yoshlarimizning yutuqlarini ko'rib, bahri dilimiz ochiladi. Ular nufuzli xalqaro sport musobaqalarida, fan olimpiadalarda g'oliblar qatoridan joy egallab, yurtimiz dovrug'ini yanada ko'klarga ko'tarishmoqda.

Men ham ana shunday yoshlardan biri ekanligimdan faxrlanaman.

Shohruh IBODULLAYEV,
Xorazm viloyati, Bog'ot yengil
sanoat kasb-hunar kolleji o'quvchisi

HASHAR — BIZGA YARASHAR



Bugun negadir havoning avzoyi buzuq. Erta tongdan yomg'ir yog'a boshladi. Istar-istamas o'qishga otlandim. Darslar nihoyasiga yetib, piyoda uyga qaytar-kanman, viloyatimiz markazidagi Alisher Navoiy nomli ko'chada joylashgan ko'p qavatli turar joy binosi oldidagi axlat uyumini ko'rib, biroz ranjidadim. Uzoqdan ikki bolakayning chiqindilarni katta yo'lning chetiga tashlab ketishayotganiga guvoh bo'ldim.

Shunda ertalab yomg'ir yog'sa ham osmondagi

va shanba kuni barcha o'quvchilar bilan hasharga bordik. Bizni ko'rib, yo'l tozalash xizmati xodimlari xursand bo'lib ketishdi. Do'stlarimiz bilan gurunglashib, ko'p qavatli uylar atrofini zumda obodonlashtirdik.

Dushanba kuni birinchi soat — geografiya darsida ustozimiz kirib, ozon qatlamiga keltirilayotgan zarar haqida ma'ruza qildilar. Ozon qatlamining yemirilishida freon gazlarining o'rni katta. Bu gazlar tarkibiga

bulutlarning tarqamayotgani sababini biroz tushungandek bo'ldim. Demak, tabiat o'ziga yetkazilayotgan zarardan ranjigan. Atrof kuzgi xazonlar bilan qoplangan, allaqanday zar qog'ozlar tuproqqa qorishib yotibdi.

Bu yerdan tezroq ketish maqsadida yer osti yo'lga tushdim-u, afsuslanib ketdim. U yer ham chiqindilarga to'la edi. Manfaatimiz yo'lida qurilgan bu tekis va ravon yo'llar, so'lim bog'larning endilikda achinarli holatga kelib qolishi meni befarq qoldirmadi. Bu haqda litseyimiz ma'muriyatiga xabar berdim

«Onajonim tabiat» tanloviga

chiqindilarning zararli gazlari ham kiradi. Shuning uchun ularni maxsus qutilarga tashlashimiz shartligini ta'kidladilar.

Ustozimizning bu gaplarini eshitib, quvonib ketdim. Shahrimiz obodligiga o'z hissamizni qo'shganimizdan barchamiz xursand bo'ldik.

Ayniqsa, men behad quvondim. Chunki ona tabiat shaydosiman. Unga ozor yetsa, mening qalbim ham ozorlanadi. Yurtimizda «Qizil kitob»ga kiritilayotgan hayvonlar va o'simliklar ro'yxatining tobora ortib borayotganidan tashvishdaman. Avvallari yurtimizda umurtqalilarning 650 turi, baliqlarning 79 turi, suvda va quruqlikda yashovchilarning 3 turi, sudralib yuruvchilarning 37 turi, qushlarning 410 turi va sut emizuvchilarning 99 turi mavjud edi. Afsuski, bugungi kunga kelib, ularning yuzlab turlari «Qizil kitob»ga kiritildi. Kitobning 1984-yilgi nashriga 163 ta o'simlik kiritilgan bo'lsa, 1998-yilgi nashrida ularning soni 301 taga yetdi. Kundan kunga bizning tabiatga yetkazayotgan ziyonimiz hayvonlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Keling, azizlar, ona tabiatga befarq bo'lmaylik! Axir u bizning do'stimiz.

Isfandiyor BURGUTOV,
Andijon davlat universiteti qoshidagi
akademik litsey o'quvchisi

OYLIK KO'NGILDAGIDEK O'TDI

Tumanimizdagi «Barkamol avlod» bolalar markazida «Ma'naviyat va ma'rifat oyli» doirasida ko'plab madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 752 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan «Navoiy — so'z mulkining sultoni», «Ma'naviy xazina», «Hazrat siyomosiga ta'zim», «Navoiy g'azalari maftuniman» kabi mavzulardagi uchrashuvlar, kecha va davra suhbatlari, insholar tanlovi ardoqli bobomizning hayoti va ijod yo'li haqida o'quvchilarning keng qamrovli ma'lumotlarga ega bo'lishlarida katta xizmat qildi.

Mazkur tadbirlarni o'tkazishda faol ishtirok etgan to'garaklarning rahbarlari hamda o'quvchilar markaz tomonidan «Faxriy yorliq» hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Nazokatxon TURSUNOVA,
Namangan viloyati, Chortoq tumani



DO'STLAR ORTTIRMOQCHIMAN

Darsdan bo'sh vaqtlarimdan unumli foydalanish maqsadida shahrimizdagi musiqa va san'at maktabining rassomlik to'garagiga a'zo bo'ldim. To'garakda rahbarimiz Mavjuda opa bilan birgalikda turli mavzularda rasmlar chizyapmiz. Bundan tashqari, doira chalish sirlarini o'rganishga ham astoydil bel bog'ladim. Yaqinda

maktabimizga Jahon banki tomonidan zamonaviy kompyuterlar taqdim etildi. Biz O.Toshniyozova, Z.Nurullayeva singari jonkuyar ustozlarimiz yordamida ulardan qanday foydalanishni o'rganyapmiz. Ushbu maqolani tahririyatga yuborar ekanman, sevimli gazetam orqali boshqa

viloyatlardagi tengdoshlarim bilan do'stlashishni niyat qildim. Men bilan xat orqali tanishmoqchi bo'lgan do'stlarimning maktublarini kutib qolaman.

Otajon UBAYDOV,
Navoiy viloyati, Uchquduq
shahridagi 7-maktab o'quvchisi



DUGONALAR

Ko'rkam, go'zal, lobar qizlarjon! Sizlarga beriladigan bu ta'rif-u tavsiflar qatoriga oqila, chevar, pazanda, zukko kabi nisbatlarning ham qo'shilishi har biringizning o'z qo'lingizda. Yoshlik damlaringizni g'animat bilib, ilm-u hunar o'rganing. Zero, Siz kelajak avlodni tarbiyalaysiz. Salomatligingizni asrang. Chunki Siz bo'lajak ona, millat davomchilarisiz. Chevarlik, pazandalik sirlarini egallang. Bugun onajonlaringizning eng yaqin ko'makchisi bo'lsangiz, ertaga oila bekasi bo'lasiz. Odobli, xushxulqli bo'ling, donishlar aytganidek, husn xulqi bilan chiroyli.... Bir so'z bilan aytganda, tabiat Sizga in'om etgan go'zallikka boshqa yaxshi fazilatlarini ham qo'shishga intilib yashang.

Bu borada «Dugonalar» sahifasi Sizga ko'makdosh, sirdosh, dildosh bo'ladi.



Sinfimizdagi Salima ismli qiz bilan yaqin dugonamiz. Shu bois dars tayyorlash uchun u biznikiga tez-tez kelib turadi.

Tug'ilgan kunimda u biznikida yotib qoldi.

Ertalab maktabga

ketayotganimizda, dadam menga pul berdilar. Qo'lim band bo'lgani uchun pulni Salimaga berib, sumkamga solib qo'yishini iltimos qildim. Birinchi soat jismoniy tarbiya darsi edi. Salima,

oyog'im og'riyapti, deya darsga qatnashmay, xonada bir o'zi qoldi. Birozdan so'ng kundaligimni olish uchun sinfimizga ketayotgandim, derazadan ichkariga ko'zim tushib qoldi. Ne ko'z bilan ko'rayki, dugonam sumkamdagi pulni olayotgan edi. Bu hol menga yomon ta'sir qildi. Yo'q, pulim yo'qolayotganidan emas, oramizdagi samimiy

do'stlikning, ishonchning yo'qolganidan ranjdim. U bir vaqtning o'zida ham ustozni, oyog'im og'riyapti, deb aldadi, ham menga xiyonat qildi. Shunda Salima biznikiga kelgan kunlari bir necha bor oyimning pullari yo'qolib qolgan yodimga tushib, ko'nglimga shubha oraladi. Demak...

Bu yo'ldan uni, albatta, qaytarish kerak. Axir u

qiz bola, bo'lg'usi ona,

kelajakda farzandlar

tarbiyasi bilan shu-

g'ullanishi lozim-ku.

Maslahat bering,

qanday yo'l tutay?

Aybini yuziga aytib, bu

yo'ldan qaytaraymi yoki

bilmaslikka olib, undan uzoqlashaymi?

Gulbahor TOSHTEMIROVA,
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi
33-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi

QANDAY YO'L TUTAY?



Zamonaviy qizlar qanday kiyinishlari kerak?

«Moda»ga qarab, deysizmi?



Ha, endi hamma kiygandan keyin kiyish kerak-da, aks holda, soat millari tobora ildamlab borayotgan zamonadan ortda qolamiz, deysiz-da?! Men ham, undan ortda qolimg, demoqchimasman. Lekin «moda» ekan deb, milliylikimizni ham aslo unutib qo'yamaylik, demoqchiman, xolos. «Moda» deb o'zligimizga, madaniyatimizga zid bo'lgan tor shim, ochiq-sochiq, nafas olishga xalaqit beradigan liboslar, mini yubkalar kiyish orqali o'zimiz bilmagan holda bobolarimiz-u momolarimiz asrlar osha e'zozlab, asrab kelayotgan urf-odatlarimizga, milliylikimizga, shuningdek, sog'lig'imizga katta putur yetkazib qo'yamiz. Masalan, tor kiyimlar o'smir organizmning o'sish faoliyatini susaytirib, uning rivojlanishini ortga surishini bilamizmi? Bilsak, nega unga amal qilmayapmiz? Aslida kiyinish madaniyati degani ko'r-ko'rona boshqalarga ergashishmikan? Menimcha, yo'q! Aslida kiyinish madaniyati – toza, dazmollangan, tabiiy matolardan tikilgan kiyimlarni kiyishimiz, oyoq kiyimlarimizning tozaligiga ham e'tibor berishimizdir.

Aziz dugonalarim, siz ham o'zingizga yarashgan kiyimni kiyishga harakat qiling. Atrofdagilarning siz haqingizdagi ilk taassurotlarini tashqi ko'rinishingiz belgilashini aslo unutmang.

Sarvinoz ATAQULOVA,
Navoiy viloyati, Konimex tumanidagi
2-maktab o'quvchisi

ENG YAQIN SIRDOSHIM

«Tong yulduzi» gazetasi «Onajonim – sirdoshim» nomli rukn tashkil qilinganini o'qib, xursand bo'ldim. Chunki oramizda o'z muammolarini volidasi bilan bo'lisha olmaydigan qizlar ham uchrab turadi. Holbuki, onalarimiz bizni bizdan-da ko'proq biladigan insonlardir. Biz ularga o'z qalbimizni ochmasak-da, dilimizga payvasta yuraklari barini sezib turadi.

Qiz farzand ko'rgan ona behad sevinadi. Qizim kelajakda voyaga yetgach, menga ko'makdosh, sirdosh, dildosh bo'ladi, deya umid qiladi. Ammo qizi ulg'aygach, yuragini sirdosh dugonalariga ochsa, volidasidan qalb tuyg'ularini yashirsa, onaning qalbi ozor chekmaydimi?!

Yaqinda bir voqeaning guvohi bo'ldim. O'smir yoshidagi bir qiz o'qishga otlangan bo'lsa kerak, shoshib uyidan chiqdi. U orasta kiyingan, sochlari chiroyli o'rilgan edi. Ammo negadir bezovta, tez-tez orqasiga qarab qo'yardi. Yo'lni kesib o'tib, chetda joylashgan go'zallik saloniga kirib ketdi. Bir qarashda buning hech bir ajablanarli yeri yo'q edi. Ammo birozdan keyin haligi qiz tanib bo'lmas darajada o'zgarib chiqdi. Egnidagi uzungina yubkasi jinsi shimga, poshnasiz, qulaygina oyoq kiyimi baland poshnali tufliga almashgan edi, o'rilgan sochlari esa yoyilib turardi. Qiz yana u yoq-bu yoqqa alanglagancha manziliga ravona bo'ldi...

Bunday qizlar o'z onasidan nafaqat qalb sirlarini, balki yurish-turishi, tashqi ko'rinishini ham yashiradi. Ammo ko'ngli sira halovat topmaydi...

Shundaylar bir ongina mehribon onajonlari bilan sirlashsa, ularga qalb eshiklarini keng ochsa, yuragi qanchalar taskin topishini, muammolari o'z-o'zidan yechilishini bilib oladi.

Siz-chi, dugonajonlar, o'z onangiz bilan sirdoshmisiz? Ular bilan dillashasizmi? Unday bo'lmasa, shoshiling, yuragingizni oching. Shunda sirlaringizni ishonish mumkin bo'lgan inson faqatgina onangiz ekanini anglab yetasiz.

Dilnavoz ASLONOVA,
O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi

FOYDALI MASLAHATLAR

Piyoz, baliq, sarimsoqpiyoz hidi o'tirib qolgan pichoqni yerga bir necha marta sanchib oling. Shunda badbo'y hiddan qutulasis.

Mehmonlar uchun ishlatadigan sanchqi va qoshiqlarda suv dog'lari qolib, zanglamasligi uchun ularni yumshoq matoda quruq qilib arting.




Uyingizdagi ko'zgu xira tortib qolgan bo'lsa, uni sirka aralashmasi bilan tozalang.

Muzlatgichga qo'yilgan go'shni suv bilan erit-mang, go'shtning ozuqaviy moddasi suvga oqib ketadi. Uni oldindan muzlatgichdan olib qo'yganingiz ma'qul.



Kirlangan gaz plitasini issiq holatda artmang, latta va kukundan dog'lar qolishi mumkin.



Tagi kirlangan dazmolni yirik tuz bilan tozalash mumkin. Qalinroq qog'ozga tuzni yo'yib, issiq dazmolda tuzni «dazmollang».



NARGIZA tayyorladi

TASHABBUSNING QANOTI BOR

Shu kunlarda poytaxt maktablarida chiroyli bir an'ana yo'lga qo'yildi. Ko'plab ta'lim maskanlarining o'quvchilari ustozlari boshchiligidagi sevimli nashrlari bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasi jamoasini ijodiy uchrashuvlarga taklif etmoqdalar. Unda esa tahririyat xodimlaridan o'zlarini qiziqitirgan barcha savollarga to'laqonli javob olishyapti. O'z navbatida ular bildirgan fikr-mulohazalar, yangi-yangi takliflar gazetamiz mundarijasini boyitishga xizmat qilmoqda. Quvonarlisi, bu ajoyib tashabbus viloyatlarga ham yoyilmoqda.

Kuni kecha Toshkent viloyati, Angren shahridagi 25- va 26-umumta'lim maktablarida bo'lib, zukko, bilimdon bolalar bilan bo'lgan uchrashuvdan olam-olam zavq olib qaytdik. Purviqor tog'lar yon bag'rida joylashgan, zamonaviy talablar asosida bunyod etilgan, har ikki maktabda ham ijodkor o'qituvchi va o'quvchilar talaygina ekan. 587 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya olayotgan 25-umumta'lim maktabi rahbari Saltanat opa Matavovaning izlanuvchan, tashabbuskor, ta'lim sohasidagi yangiliklarni tatbiq etishda peshqadam ekanligi bilim maskaniga kirishimiz bilan sezildi. Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari



ZUBAYDA olgan suratlari

Tadbir chog'ida 2-«A» sinf o'quvchilarining barchasi «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishganini eshitib, «Barakalla, kichikintoylar!» deb yubordik, beixtiyor. Maktab esa gazetamiz obunasida shahar bo'yicha birinchilikni qo'lga kiritibdi. Bolalarning ma'naviyatini shakllantirishdek bu ibratli ishlarda 48 yildan buyon maktabda kutubxonachilik qilib kelayotgan Xayriniso opa Pardayevaning xizmatlari beqiyosligini alohida ta'kidlamochi edik.

Navbatdagi tashrifimiz shahardagi 26-umumta'lim maktabiga bo'ldi. Bu maskanda 658 o'quvchiga 47 nafar malakali ustozlar bilim sirlarini o'rgatib kelishmoqda. Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Nilufar opa Kuralovanning shogirdlari bu uchrashuvga qizg'in hozirlik ko'rishibdi. Ular bilan bo'lgan savol-javoblardan ko'nglimiz to'lib, gazetamiz sahifalari yanada boyishiga amin bo'ldik. Ijodiy muloqotimizning qiziqarli o'tishida Angren shahridagi «Dovon jilg'alari» to'garagi rahbari, yosh ijodkorlarning sevimli ustoz Muhabbat Abduqodirovning xizmatlarini ham alohida ta'kidlamochi edik.

Quvonarlisi, o'quvchilarning bizga aytar gaplari, yutuqlari ko'p ekan. Zero, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlardan ko'zlangan maqsad ham shu aslida.

O'z muxbirimiz



Dilfuza Zilboyevaning iqtidorli, salohiyatli shogirdlari haqida g'urur bilan so'zlashi barchani to'liqlantirib yubordi. Maktabning 7-sinf o'quvchisi Murodjon Ikromov «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida faxrli o'rinlardan birini egallagan bo'lsa, uning tengdoshi Sadoqat O'sarova «Mohir qo'llar» to'garagiga faol qatnashib, yaxshigina chevarga aylanibdi. 3-«A» sinf o'quvchisi Xumorabonu Ernazarova esa ona tabiat haqidagi she'rlari bilan maktabdoshlari e'tiboriga tushibdi. Nasiba Salimova, Nozima Matqosimova kabi ustozlar yosh iqtidor egalarining har bir yutug'idan quvonib, ularni yangi-yangi marralar sari undashdan charchamayaptilar.

1-mart - Giyohvandlik va giyohvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi xalqaro kurash kuni

GIYOHVANDLIK - ASR VABOSI

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan yurtimizda fevral «Giyohvandlikka qarshi kurash» oyi deb e'lon qilinganidan, oylik doirasida turli korxona va tashkilotlarda, ta'lim muassasalarida ko'plab tadbirlar o'tkazilayotganidan xabaringiz bor. Biz ham maktabimizda «Giyohvandlik - asr vabosi» mavzuida tadbir o'tkazdik. Unda so'zga chiqqanlar giyohvandlikning qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi, u tufayli qanchadan qancha insonlarning yostig'i quriyotgani haqida so'z yuritishdi. Ayniqsa, maktabimiz direktori Abror aka Shokarimov bugungi kunda ba'zi nopok kimsalar ma'naviyatimizga zid bo'lgan salbiy illatlarni yoshlar ongiga singdirishga urinishayotganini ta'kidlab, bizni ogohlikka chorladilar. Bunday kuchlarga qarshi birgalikda kurashishimiz, a'lo baholarga o'qishimiz, yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanishimiz lozimligini uqtirdilar. Shuningdek, tadbirda o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Venera opa Tuyakayeva, Sayyora opa Turpova, mahalla faollariidan Temur aka Soatov, Muhabbat opa Eshchanova ham qatnashib, giyohvandlik ko'chasiga kirgan kimsalarning ayanchli taqdiri haqida so'zlab berishdi.

Tadbir davomida biz ham bu «zahri qotil» haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Sardor XOLDORBOYEV,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi
35-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi

Qadrlil o'quvchilar, asr vabosi, deya atalayotgan giyohvandlik va uning ayanchli oqibatlari haqida ko'p o'qigansiz, ko'rasiz, eshitasiz. Shunday bo'lsa-da, biz Sizni yana bir bor ogohlikka chaqiramiz. Ma'lumotlarga qaraganda, giyohvandlikka ruju qo'yish holatlari keyingi yillarda 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar orasida ko'payib bormoqda. Bu esa



vandlik qayd qilingan, 81 ta mamlakatda esa bu illat OITS bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Yurtimizda yoshlarning bunday illat domiga tushib qolmasliklari uchun ko'plab sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Jumladan, kollej, litsey va maktablarda giyohvandlikning oldini olish, unga qarshi birgalikda kurashish

GARD YUQMASIN UMR GULIGA...

jahon hamjamiyatini jiddiy tashvishga solayotir. Ayniqsa, giyohvand moddalari oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi nopok kimsalar o'z saflarini yanada kengaytirish maqsadida o'smirlarga bu «zahri qotil»ni tatib ko'rishni tavsiya qilishayotgani, keyinchalik bu moddalarga tobe bo'lib qolgan yoshlar o'zlari bilmagan holda jinoyat olamiga kirib qolayotgani achinarli hol, albatta.

Butunjahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning 121 mamlakatida aholi o'rtasida giyoh-

maqsadida mahalla faollari, narkolog-shifokorlar, ichki ishlar xodimlari bilan muntazam ravishda tadbirlar, uchrashuvlar tashkil qilinmoqda.

Aziz bolajonlar, Siz kelajagimiz egalari, umrimizning gultojisiz. Shunday ekan, giyohvand moddalardan nafaqat o'zingizni, balki yon-atrofingizdagi tengdosh do'stlaringizni ham asrang, bu yo'lga boshlayotganlardan doimo yiroq bo'ling. Guldek umringizga gard yuqtirmang!

Internet materiallari asosida
OZODA tayyorladi

TILIM

Tafakkurim tiniq,
Tilim ham burro.
Men o'zbek bolasi –
Beshigim tillo.

Navoiy lutfiga,
Javob beray deb.
So'z xazinasiga
Men ham beray zeb.

Hali tajribam kam,
Bunga iqrorman.
Navoiy bobomga,
Muxlis Asrorman.



Asror TURDIQULOV,
Toshkent viloyati,
Bekobod shahridagi
8-umumta'lim maktabi o'quvchisi

TA'ZIM

Ta'zim qilib egay boshimni,
Ona yurtim O'zbekistonga.
Quchog'ida kamolga yetay,
Dovrug'ini yoyay jahonga.

Ona xalqim kekxa donishmand,
Yigitlari har ishda ilg'or.
Oy qizlari bilimdon, zukko,
Shundan dilga to'lar iftixor.

Asror TURDIQULOV,
Toshkent viloyati,
Bekobod shahridagi
8-umumta'lim maktabi o'quvchisi



TILAK

Oq bulutni parto'shak qilsam,
Yulduzlarni sehrli chiroq.
Oymoma-chi, bo'lsa ertakchim,
Yovuzliklar bo'lsaydi yiroq.

Sochlarimdan arg'amchi solib,
Shabbodaga bo'lsaydim o'rtoq.
Shamol degan tulporni minib,
Shiviriga solsaydim quloq.

Dunyodagi har bir insonga,
Yaxshiliklar tilab yashayman.
Qo'ldan kelsa, barcha do'stlarga,
Ezguliklar qilishga shayman.

Odinaxon ANORQULOVA,
Farg'ona viloyati,
Uchko'priq tumanidagi
26-umumta'lim maktabining
8-A sinf o'quvchisi

QISHLOG'IM

Aziz go'sham, ko'rking o'zgacha,
Mevalaring boldayin shirin.
Orzularim beshigi sensan,
Senda tuydim yashashning sirin.

Odamlaring aziz, mukarram,
Baxt kalitin topar mehnatda.
Onaxon-u otaxonlaring,
Yashaydilar doim izzatda.

Qadrdonim, ona qishlog'im,
Unutmasman mehringni zinhor.
Obod qilib seni yana ham,
Tuproq'ingni aylaymiz gulzor.

Feruza RO'ZMATOVA,
Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi 5-umumta'lim
maktabining 9-A sinf o'quvchisi




GO'ZAL TABIAT

Onajonim tabiat,
Go'zalliging begiyos.
Husningga husn qo'shar,
Daraxtlar gullab qiyg'os.

Sening musaffoliging
Bilsang, bizning baxtimiz.
Sofligingcha asrashlik,
Maqsadimiz – ahdimiz.

Senda, ona tabiat,
Yashar barcha baxtiyor.
Onadek ardoqlashga
Biz yoshlar doim tayyor.

Hilola TURSUNOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani



Ikromning bobosiga tegishli katta chorbog'i bor. U yerdagi mevali daraxtlarning turi ko'pligidan odamning aqli shoshadi. Bu daraxtlar har yili shu qadar shig'il hosil beradiki, «Buncha hosilini yeb ham, sotib ham tugatib bo'l-masa kerak», degan xayolga borasiz.

Bobosi bog'dagi daraxtlarni xuddi o'z farzandi kabi mehr bilan parvarishlaydi. Ikrom esa ukasi Mansur bilan bobosining ishlarini kuzatadi, qarashadi. Bobo bog'dagi mevalarni qo'ni-qo'sh-

nilarga, tanish-notanishlarga ulashadi.

Bir gal bobo uzoq qishloqdagi do'stini ko'rgani bormoqchi bo'ldi. Bog'ga qarab turishni Ikromjonga ishonib topshirdi.

– Bolajonim, men bir necha kunga do'stimnikiga mehmonga ketyapman, – dedi bobosi safar oldidan. – Daraxtlarga, ayniqsa, yosh ko'chatlarga hushyor bo'l.

Xullas, bobo ketib, nabira kattakon mevazor bog'ga mas'ul bo'lib qoldi.

Ikrom bobosi tayinlagan ishlarni erta qilaman, indin qilaman, deb ortga suraverdi. Kun bo'yi televizor ko'rар, qo'l telefonidan bo'shamas, yoz chillasida suvsizlikdan tagi qotgan ko'chatlarning «dod-faryod»ini sira eshitmasdi. Agar Ikrom daraxtlar tilini bilsaydi, ularning mana bunday nolalarini eshitgan bo'lardi:

– Judayam chanqadim, xuddi qurib qoladigandekman, – dedi jajjigina ko'chat yonidagi sherigiga.

– Nimasini aytasan, bu Ikrom deganlari o'yindan boshqa narsani o'ylamaydi, – dedi yana bir navnihol javoban. – Barglarim to'бора qovjirab, holdan toymoqdaman...

Oradan kunlar o'tib, bobo safardan qaytdi. Kelasolib, boqqa o'tdi. Daraxtlariga ko'z yugurtirib, avzoyi o'zgardi:

– Bolam, men senga nima deb tayinlagan edim, ko'chatlarning barglari suvsizlikdan qovjiray boshlabdi-ku! Sen ularga ancha ozor yetkazibsan. Bu ishingdan ular yig'lab, nola qilyapti-ku.

– Iye, bobo, daraxtlar ham yig'laydimi?

– Ha, bolam, agar ko'chatlarni mehr bilan parvarishlamasang, ular ham yig'lashadi.

Shunda Ikrom daraxtlarga beparvo bo'lganligidan ko'p afsuslandi. Darhol qo'lga chelakni olib, ko'chatlarga bir-bir suv quya boshladi. Sal vaqt o'tgach esa ularning tagini yumshatishga kirishdi. Barglari so'lib, horg'in turgan daraxtlar jonlana boshlashdi.

– Ana, ko'rdingmi, bolam, – dedi bobosi Ikromga, – daraxtlar bu ishing uchun senga rahmat aytishyapti.

– Bobo, siz ularning rahmat aytayotganini qayerdan bildingiz? Men ularning gapini eshitmayapman-ku.

– Ular yam-yashil barglari, novdalari bilan quyoshga intilishmoqda. Bularning xursandchiligi senga rahmat aytayotganidir.

Shunda Ikrom xijolat tortib:

– Bobo, meni kechiring, o'yinga berilib, ko'chatlarga qaramabman, – dedi boshini egib.

– Mendan emas, daraxtlardan kechirim so'ra, – dedi bobosi.

– Daraxtlar, meni kechiringlar, – dedi Ikrom qilgan ishidan afsuslanib.

Daraxtlar esa: «Ikrom, biz seni kechirdik», degandek shabadada mayin chayqalishardi.

Sitora BOBOMURODOVA,
Surxondaryo viloyati, Sherobod
qurilish va xalq hunarmandchiligi
kasb-hunar kollejining
3-bosqich o'quvchisi

SPORT ANJOMLARI KO'RGAZMASI

Davomi. Boshi 1-betda

O'tgan yillar davomida yurtimizda bolalar sportini rivojlantirishga doir bir qancha ibratli ishlar amalga oshirildiki, bu avvalo, mamlakat kelajagi bo'lgan Siz, aziz yoshlarning har jihatdan sog'lom bo'lib voyaga yetishingiz, iqtidor va qobiliyatingizni to'la namoyon etishingizga zamin yaratmoqda. Quvonarlisi, qisqa davrda sportning barcha turlarini rivojlantirish, yoshlarimiz orasida uni ommalashtirish kabi ezgu ishlar xalqimiz o'rtasida milliy harakatga aylantirildi. Ayni paytga qadar 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan qariyb 1 million 600 ming bola yoki yurtimizdagi bolalarning 35,6 foizi ko'plab sport turlari bilan muntazam shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lgani so'zimiz tasdig'idir. Bunda, ayniqsa, davlatimiz rahbarining 2002-yil 24-oktabrdagi «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi va 2004-yil 29-avgustdagi «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari muhim dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Sohada bunday yutuqlarning qo'lga kiritilishi so'zsiz, sport inshootlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni kerakli sport anjomlari bilan ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilishi samarasidir. Bugun bolalar sporti obyektlarini jihozlash uchun kerak bo'ladigan 120 xil sport jihozlaridan 115 turi mamlakatimizning o'zida ishlab chiqarilmoqda. Ayniqsa, «Mashxim», «Xo'jaobod» mas'uliyati cheklangan jamiyatlari, «Uz Tong Xong Ko» qo'shma korxonasi, «Zulfiya» xususiy korxonasi bu boradagi xayrli ishlarga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Korxonamizda 25 turdan ziyod sport anjomlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan, – deydi «Xo'jaobod» mas'uliyati cheklangan jamiyat rahbari Farhod Abilov. – Hozirda respublikamizning deyarli barcha viloyatlaridagi sport inshootlarida korxonamizda tayyorlangan jihozlardan foydalangan holda yoshlarimiz sport sirasrorlarini o'zlashtirmoqdalar. Kelajakda o'z mahsulotlarimiz bilan jahon bozoriga chiqish niyatidamiz.

Bunday ezgu ishlarga munosib hissa qo'shayotgan yurtdoshlarimiz bor ekan, mamlakatimizda bolalar sporti yanada yuksalib, yoshlarimiz orasidan ko'plab chempionlar yetishib chiqaveradi.

Sa'dullo TURSINOV

Hozirgi kunda mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi va ularning sog'lom voyaga yetishi uchun bolalar sporti sohasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida yoshlarimiz orasidan ko'plab yosh chempionlar yetishib chiqmoqda.

QUVONDIQNING YUTUQLARI

Kegeyli tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 9-A sinfidagi tahsil olayotgan Quvondiq Xo'jabayev, mana bir necha yildirki, sportning milliy kurash va dzyudo turlari bilan jiddiy shug'ullanib keladi. Hozirda u murabbiyi Quvanish Baltaniyazovdan sportning sirasrorlarini puxta o'rganmoqda. Ayni paytga qadar Quvondiq bir nechta musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritdi.

2010-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi chempionatida 1-o'rinni egallagan bo'lsa, «Yoshlik» turnirida ham unga mos raqib topilmadi. Shuningdek, «Yoz – 2012» sport musobaqalarida ham muvaffaqiyatli qatnashib, 3-o'rin

sohibiga aylandi. Yosh polvonimiz uchun 2013-yil ham omadli keldi. Yaqinda o'tkazilgan Qoraqalpog'iston ochiq birinchi-ligida o'zining ishonchli harakatlari bilan sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Quvondiq bunday yutuqlarni qo'lga kiritishida xizmati singan mehribon ustozlari, do'stlari va albatta, murabbiyi Quvanish Baltaniyazovdan cheksiz minnatdor.

Kelgusi musobaqalarda ham sportchi tengdoshimizga omad kulib boqishiga tilakdoshmiz.

Ayjamal KARAMATDINOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumanidagi 11-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Zuhra NISHONOVA olgan surati



Mahliyo ABDUQODIROVA
chizgan rasmi

Aziz bolajonlar! Bugun sizga Yaponiyaning ta'lim tizimi va yaponiyalik tengdoshlaringiz haqida hikoya qilamiz.

Ushbu kunchiqar mamlakatda ham farzand oilaning quvonchi, yurt kelajagi hisoblanib, ularga katta e'tibor beriladi. Besh yoshgacha «podshoh»dek munosabatda bo'lingan bolalarga keyinchalik tartib-qoidalarga rioya qilish o'rgatiladi.

Ularga juda kichikligidanoq atrofdegilarni, keyinchalik bog'cha, maktab, ish joyida jamoadagilarni hurmat qilish lozimligi uqtiriladi. Yapon bolalari uchun eng og'ir jazo jamoadan chetlashtirish, e'tibordan chetda qolish hisoblanadi. O'n besh yoshga to'lgan o'smirlar Yaponiyada mustaqil shaxs sifatida munosabatda bo'lishadi.



O'quv yili aprel oyidan boshlanib, bu sakura daraxtining gullashi bahor bayrami bilan bog'liq. Uch chorakdan iborat o'quv yili davomida beriladigan ta'tillarning eng uzuni – yozgi ta'til ham atigi bir oyni tashkil qiladi. Darslar tugagach, barcha o'quvchilar, hatto quyi sinf o'quvchisi ham uyiga emas, balki qo'shimcha mashg'ulotlar – «dzyuku»ga oshiqishadi. Sport seksiyalari tonggi 05:00 dan kechgacha ochiq bo'ladi. Uy vazifalarini tayyorlash uchun esa o'quvchi 5-6 soat sarflaydi. Va bu yaponiyaliklar uchun me'yori holat hisoblanadi. Boshlang'ich, o'rta va katta maktabdan iborat ta'lim tizimida 2011-yildan chet tillarini boshlang'ich sinflardan o'rganish majburiy qilindi. Yaponiya ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlaridan yana biri har yili sinf tarkibi va o'qituvchilarning o'zgarib turishidir. Bunda o'quvchining turli fe'l-atvordagi tengdoshlari va kattalar bilan til topishishga o'rganishi nazarda tutiladi. O'qituvchilarga esa har o'n yilda litsenziya berilib, o'z ustilarida ishlashlari qat'iy talab qilinadi. Ushbu mamlakatda o'g'il bolalar va qizlar kuni nishonlanadi. O'g'il bolalar bayramida uzoq suza olishi, chidamliligi uchun ramz qilib olingan karp bali'gi aks ettirilgan turli rasmlar havoga uchiriladi. Qizlar kunida esa guruchli kulchalari pishiriladi. Yana qaysi mamlakatdagi tengdoshlaringiz hayoti bilan tanishishni istadingiz, fikr-mulohazalaringizni kutamiz.

QIZLARXON tayyorladi

BIZ CHIZGAN RASMLAR

QUSHLAR - BIZNING DO'STIMIZ



Shahzodabonu Tojiboyeva poytaxtimizdagi 276-maktabning 3-«A» sinfida tahsil oladi. Darsdan bo'sh paytlarida rasm chizish uning eng sevimli mashg'uloti. Bu jaffi o'quvchimizning ona tabiat shaydosi ekanligini bizga chizib yuborgan rasmdan ham bilsa bo'ladi. «Qushlar bizning do'stimiz», deb nomlagan ushbu rasmi orqali tengdoshlarini ham qanotli do'stlarimizni avaylab-asrashga chaqiradi.


ULUG'BEKNING OTLARI



Chilonzor tumanidagi 107-maktabning 5-«G» sinf o'quvchisi Ulug'bek Mahammedovning tabiatga, jonzotlarga mehri bo'lakcha ekan. Ayniqsa, otlarni juda yaxshi ko'rar, ularning poygasidan bir olam zavq olar ekan.

Yaqinda u tahririyatimizga bir dasta chizgan rasmlaridan olib keldi. Ular orasidagi o'zgacha mehr bilan chizilgan «Otlar» nomli rasmi bizga ma'qul bo'ldi. Ulug'bekning ijodiga siz ham baho bering.

MAHMEDOV



- Qani, Azizjon, menga hisoblab ber-chi: senda o'n ming so'm pul bor edi. O'ying senga yana o'n ming so'm berdi. Puling qancha bo'ladi?
- O'n ming so'm.

- Aytdim-ku, sen hisobni yaxshi bil-maysan, deb.

- Yo'q, ustoz, siz oyimni yaxshi bilmaysiz...

ZUBAYDA tayyorladi

TABRIKLAYMIZ! QUTLAYMIZ!

Qarang, qanday chiroyli, Mubinaning oy yuzi. Oilaning quvonchi, Bahorning erka qizi.

Tavallud ayyom bilan Tabriklaymiz biz uni. Quvonchga to'liq bo'lsin, Shirintoyning har kuni!



DEVORIY GAZETA TAYYORLAYAPMAN

Assalomu alaykum, qadrlı «Tong yulduzi!» Sening har bir sahifangni takror va takror o'qiyman. Men ham senga xat yozishga qaror qildim-u, ammo nimadan boshlashni bilolmay, o'ylanib qoldim. Chunki senga aytadigan gaplarim juda ko'p. Maktabimiz yangi, 2008-yilda foydalanishga topshirilgan. Shunday chiroyli, ko'rkam, zamonaviy maktabda saboq olayotganimdan faxrlanam. Sinfimiz o'quvchilari juda ahil. Men sinf sardoriman. O'zim tayyorlayotgan devoriy gazetadagi ayrim qiziqarli ma'lumotlarni sen orqali tengdoshlarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.



TASODIF VA IXTIRO

1811-yil. Fransuz kimyogari Verner Kurtia o'z laboratoriyasida odatdagidek tajriba o'tkazardi. Stoldagi ikkita idishning birida dengiz suv o'tlari kulinging spirtli qorishmasi, ikkinchisida esa sulfat kislotasi bor edi.

Tajriba chog'i olimning yelkasida o'tirgan erkato'y mushugi stol ustiga sakrab tushgandi, ikkala shisha ham sinib, chilparchin bo'ldi. Idishlardagi suyuqliklar

bir-biriga qo'shilib, xonani ko'k-gunafsharang bug' butunlay qoplab oldi. Yangi element - yod shu tariqa kashf etilgan edi.

Kurtia keyinchalik Fransiya Fanlar Akademiyasidan bu ixtirosi uchun 6000 frank mukofot oldi. Olim mushugini qanday mukofotlagani noma'lum...

BIR DAQIQADA...

Bir daqiqada dunyo bo'yicha 114 nafar bola tug'iladi. Shulardan 6 nafari egizaklardir.

Bir daqiqada dunyoda 700 tonna po'lat va cho'yan, 4600 juft poyabzal ishlab chiqariladi. 68 ta avtomashina tayyorlanadi.

Bu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Lekin men bir narsani bilmoqchi edim: biz bir daqiqada nimalar qila olamiz? Har daqiqani behuda sarflamay, ilm olishga bag'ishlasak, bilimimiz yanada ortadi.

Asalxon OTAXONOVA,
Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi 47-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi



XANDALAR

Ona o'g'liga dedi:
- Tezroq kiyinaqol. maktabga kech qolasan.
- O'ytjon, xavotir olmang. Maktabimiz eshigi kun bo'yi ochiq turadi...

8

25-fevral 2013



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» birkumaga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Bosh muharrir:
Feruza JALILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Quroqboy ERGASHEV,
Sobitxon TURGUNOV

Navbatchi muharrir:
Dilorom HOTAMOVA
Rassom:
Feruza MATYOQUBOV
Dizayner:
Olovuddin ORIPOV
Musahhih:
Nargiza ABDULLAYEVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 88725
Buyurtma N: J 6508